

O'ZBEKISTONDA TURIZM VA UNING AHAMIYATI

M.A. Tursunaliyeva
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2- bosqich talabasi

Annotatsiya : Maqolada turizm sohasining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni , turizmni rivojlantirishning istiqbollari , turizm tushunchasi , uning boshlanishi , shakllanishi va tarixi hamda pandemiyaning turizmga ta'siri bayon etilgan . Shuningdek , O'zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorlik resurslari ko'rsatilgan.

Аннотация: В статье описаны роль сферы туризма в национальной экономике, перспективы развития туризма, понятие туризма, его начало, становление и история. Также показаны историко-культурные ресурсы Узбекистана.

Annotation: The role of the tourism sector in the national economy, the prospects of tourism development, the concept of tourism, its beginning, formation and history are described in the article. Also, historical and cultural resources of Uzbekistan are shown.

Tayanch so'zlar: turizm, iqtisodiyot, istiqbol , jahon, viloyat , ziyyarat, jamiyat, tarix .

Ключевые слова: туризм, экономика, перспектива, мир, регион, паломничество, общество, история.

Keywords: tourism, economy, perspective, world, region, pilgrimage, society, history.

Ekspertlarning baholashicha , XXI asrda jahon iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch turizm bo'ladi. 2010- yilga borib dunyoda turistlik sayohatlar soni 2 marta ko'payishi bashorat qilingan . Turizm tashqi iqtisodiy aloqalarda alohida o'rinni tutadi. Undan olinadigan daromadlar xorijga mahsulot va mehnat chiqarmay turib chet el valutasini olishning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Turistlik biznesning " Valutaning ko'rinas eksporthisi " deb atalishi beziz emas . Turizmdan olinadigan mablag' daromadga aylanadi va iqtisodiyotning turli sohalarida aylanishda davom etadi . Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keying yillardagi barcha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorliklarga qaramay , mamlakat turizm sohasi davlat investitsiyalarisiz va dotatsiyalarisiz mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini oshirib borayotgan xalq xo'jaligi tarmoqlaridan biridir . O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida tashqi va ichki muhitning tez o'zgarib turishi munosabati bilan O'zbekiston turizm bozorini rivojlantirishda ham bir qator muammolar

mavjudligini tan olish zarur . O’z navbatida bunday holat turizm tarmog’iga valuta mablag’lari va mamlakatimiz hamda xorijiy investorlar tomonidan qo’yiladigan investitsiyalar hajmining kamayishiga olib keladi [1].

Turizm fransuzcha “ tour “ so’zidan olingen bo’lib, sayr – sayohat ma’ nosini anglatadi . Zamonaviy texnika vositalari harakatlanish xarakterini tubdan o’zgartirib yuborib, xohlagan vaqtda sayohat qilish imkonini beradi. Bugungi kunda zamonaviy turizm asoschisi deb tan olingen baptist ruhoniysi – Tomas Kuk birinchilardan bo’lib sayohatchilarining ommaviy safar uyushtirishining foydalilagini anglab yetdi hamda 1843-yilda o’z qavmi uchun dastlabki temiryo’l orqali turni tashkillashtirdi va muvaffaqiyatga erishdi. Yevropa bo’ylab turlar odatiy holga aylandi, Kukning turistik agentligi va uning filiallari tuzildi. Zamonaviy samolyotlarning ixtiro qilinishi bilan bir hududdan ikkinchi hududga yer aylanishi tezligidan tezroq yetib borish imkonini berdi. O’zbekiston Respublikasining „ Turizm to’g’risida ” gi Qonunida turizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan : „ Turizm- jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog’lomlashtirish , ma’rifiy , kasbiy – amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to’lanadigan faoliyat bilan shug’ullanmagan holda uzog’i bilan bir yil muddatga jo’nab ketishi (sayohat qilishi) ” [2 , 62-bet]. Shuningdek, O’zbekistonda turistik viloyatlar mavjud. Ular o’zining tarixi , madaniyati , yodgorliklari bilan mashhur. Yuksak tarixga ega viliyatlardan biri bu – Buxoro. Somoniylar davlati. Shayboniyxon asos solgan Buxoro xonligi. U o’zining tarixiy binolari, hovuzlari , maqbaralari bilan mashhur. Samarqand esa „Registon” maydoni , shirmon nonlari bilan butun Yevropani hayratga soladi . Har yili ko’plab turistlar ushbu viloyatlarga sayohat qiladilar . Tarixiy va madaniy turizm - bu faol turizmning eng keng tarqalgan turi. U ta’lim va axborot maqsadlariga yo‘naltirilgan barcha turizm turlarini o’z ichiga oladi. Bunday turizm dasturlari insoniyatning turli xil tabiiy tarixiy va madaniy meroslariga qiziqishiga asoslangan. Bunda turistik mahsulot madaniy tajribalar shaklida taklif etiladi. Etnik va etnografik turizmni o’ziga xos tarixiy-madaniy turizm deb hisoblash mumkin, bu o’z maqsadlariga (saqlab qolish, zarar yetkazmaslik) ko’ra, ekologik turizmga yaqin turadi. Mamlakatlar va xalqlar madaniyati turistik qiziqishning asosiy elementlaridan biridir. Turistlarning turli shaharlarga, dunyoning chekka burchaklariga va ularda istiqomat qiladigan xalqlarga bo’lgan qiziqishi sayohat qilishning eng kuchli rag’batlantiruvchisidir. Shuning uchun turizm boshqa madaniyatlar bilan, boshqa xalqlarning tarixi va hayoti bilan, badiiy asarlar bilan tanishishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Boshqa mamlakat tarixi, madaniyati va urf-odatlari bilan tanishish insonning ma’naviy dunyosini boyitadi [2].

„Ma’lumki pandemiya chog’ida O’zbekistonda turistlar soni ancha kamaydi . Bu davlat iqtisodiyotda ham o’z ta’sirini ko’rsatdi . 2021 yilda barcha ishlarni

umumiylar raqamlar orqali emas, aniq rejalar va reysma-reys yo‘nalish bo‘yicha batafsil hisob-kitob asosida amalga oshirmoqchimiz, ziyorat turizmiga ko‘proq e’tibor qaratmoqchimiz. 2021 yilda O‘zbekistonga 1 million 700 ming nafar xorijiy sayyoh tashrifini ta‘minlash bo‘yicha reja qilingan va keladigan daromad 370 million dollar bo‘lishi kutilyapt ”, deb ta‘kidlagan Aziz Abduhakimov [3].

Endi bu raqamlarni 2019 yildagi «pandemiyasiz dunyo»dagi holat bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, 2020 yilda turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromad 80 foizga pasaygan. Agar 2021 yilda vaksinatsiya jarayonlari tezlashib, qo‘mita tomonidan e’lon qilingan prognozlar o‘zini oqlasa, sohadan keladigan daromadlar 2019- yildagi ko‘rsatkichlarning 28 foizi miqdorida tiklanishi mumkin. Bundan tashqari, turizm iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari: transport, mehmonxonalar biznesi, umumiylar ovqatlanish, savdo-sotiqlar sohalarida ham ikkilamchi talabni yuzaga keltirishi natijasida iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazgan . Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 5%ini tashkil etadi, rivojlangan mamlakatlarda deyarli 10% aholi turizm sohasida band. COVID-19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi eng katta talafot ko‘rgan tarmoqlardan hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yilda xalqaro turizm 72% ga yoki turizm xizmatlaridan tushumlar 1,1 trillion dollarga kamayib, 1990 yil darajasiga tushib qoldi. Natijada 935 mlrd. dollar miqdorida eksport daromadlari yo‘qotildi . Ma’lumki, 2020- yil 16 martdan mamlakatimiz tashqi va ichki turistlar uchun yopilgan edi. Oqibatda 1,5 mingdan ortiq turoperator, 1,2 mingta mehmonxona o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Bular, gidlar, milliy hunarmandchilik, ziyoratgoh va sihatgohlar, umumiylar ovqatlanish, transport va boshqalar bilan qo‘shib hisoblaganda 250 mingdan ortiq aholi daromadiga jiddiy ta’sir qildi . Shuningdek, prezidentimiz Shavkar Miromonovich Mirziyoyev ham bu borada o‘z fikrlarini quyidagicha bildirganlar : «Xorijdagи asosiy savdo hamkorlarimizning milliy valyutalari qadrsizlanishi respublikamizga ham, albatta, valyuta tushumini kamaytiradi. Xorijiy turistlar soni va tushum miqdori kamayishi mumkin. Bular, tabiiyki, yalpi ichki mahsulot va eksport hajmiga ta’sir qilmasdan qolmaydi» [3].

Yuqoridagilardan umumiylar xulosa qilib, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish nafaqat, madaniy sohani qo’lllab-quvvatlashga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirish imkoniyatini taqdim eta oladigan sohalardan biri sifatida qarash kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. I. S. Tuxliyev , G’. X. Qudratov, M.Q.Pardayev // “Turizmni rejalashtirish” . Toshkent “ IQTISOD – MOLIYA” 2010 . 4-7- betlar.
2. M.A. Mirzayev , M. T.Aliyeva // “ Turizm asoslari “ . O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent- 2011. 62-70-betlar .

Foydalanilgan internet saytlar ro’yxati:

1. <https://kun.uz/uz/11780695>